WORLD FORUM ON ACADEMIC INNOVATION AND DIGITAL LITERACY

OTA-ONA VA FARZANDLAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ SHAKLLANISHIDA TA'SIRI

KUDRATOVA LOLA RAVSHANOVNA

TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI DOTSENTI, PHD

TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI TALABASI

UMARALIYEVA SHOXSANAM ADXAM QIZI

TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI TALABASI

SALOXIDDINOVA FARANGIZ EGAMBERDI QIZI

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada o‘smirlik davri va shaxs rivojlanishining bu davrida intensiv biologik, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar haqida, mavzuga oid tadqiqot natijalari yoritilgan. Shu bilan birga, mazkur davrda o‘smir shaxsining ijtimoiylashuvi, identifikatsiyasi va o‘z-o‘zini anglash jarayonlari haqida psixologik tahlillar keltirilgan.

KALIT SO'ZLAR: O‘smirlik davri, shaxs, ijtimoiylashuvi, identifikatsiya, ekspressivlik, konflikt, oilaviy rollar.

ВЛИЯНИЕ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ РОДИТЕЛЯМИ И ДЕТЬМИ НА ФОРМИРОВАНИЕ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

АННОТАЦИЯ В этой статье рассказывается об интенсивных биологических, психологических и социальных изменениях в подростковом возрасте и в этот период развития личности, освещаются результаты исследований по данной теме. В то же время представлены

психологические анализы процессов социализации, идентификации и самосознания личности подростка в данный период.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: подростковый возраст, личность, социализация, идентичность, выразительность, конфликт, семейные роли.

INFLUENCE OF PARENT-CHILD RELATIONSHIPS IN THE FORMATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS

ANNOTATION This article covers intensive biological, psychological and social changes during this period of adolescence and personality development, with the results of a thematic study. At the same time, psychological analysis of the processes of socialization, identification and self-awareness of the adolescent personality in this period is presented.

KEYWORDS: adolescence, personality, socialization, identity, expressiveness, conflict, family roles.

KIRISH 2021-yilda BMT Bolalar Jamg‘armasi tomonidan e’lon qilingan hisobotga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har uchinchi o‘smir o‘z tengdoshlari tomonidan ruhiy yoki jismoniy bosimga uchraganini bildirgan1. AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Rossiya kabi mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar ham yoshlar orasidagi agressivlik darajasining so‘nggi o‘n yillikda oshib borayotganini ko‘rsatadi. Ko‘plab xorijiy psixologlar A. Bandura, K. Levin, D. Richardson, R. Baronlar o‘z ishlarida agressivlikning shakllanishida ijtimoiy o‘rganish, shaxsiy tajriba va atrof-muhit omillari muhim o‘rin tutishini ta’kidlashgan. Ularning tadqiqotlari asosida dunyo mamlakatlarida yoshlar bilan ishlash bo‘yicha maxsus dasturlar, ta’limiy treninglar va oilaviy maslahat markazlari joriy etilgan. Misol uchun, Finlyandiyada “KIVA” nomli mobbingga qarshi dastur maktab muhitida zo‘ravonlikni 30 foizgacha kamaytirishga erishgan.

[1] https://www.unesco.org › general-conference.com.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham yoshlar orasida ijtimoiy muammolar, jumladan, ruhiy bosim, oilaviy nizolar va maktabdagi nizoli holatlar ortib borayotganini bir qator davlat tashkilotlari va mahalliy mutaxassislar o‘z tadqiqotlarida qayd etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yilda tasdiqlangan “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da yoshlar orasida psixologik sog‘lomlikni ta’minlash, ijtimoiy himoya va tarbiya tizimini takomillashtirish zarurligi ta’kidlangan2.

ASOSIY QISM O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida “ PF-87-son Farmoniga ko’ra, oilaviy muhitni sog‘lomlashtirish, voyaga yetmaganlar tarbiyasi va himoyasi borasidagi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan3. Mazkur hujjatda o‘smirlar ruhiy holatini baholash, ijtimoiy-psixologik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar nazarda tutilgan.

Ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘smirlarda agressiv xulq shakllanishiga ta’sirini o‘rganishga doir tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 1-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi tanlandi. Tadqiqotimizda doirasida o‘tkazilgan so‘rovnomalarda ishtirok etgan 150 nafar o‘smirlarning 75nafarini qiz bolalar va yana shuncha qismini o‘gil bolalar tashkil etdi. Sinaluvchilarning foiz ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda aks etgan.(1.1-jadval)

Tadqiqotda ishtirok etgan etgan o‘smirlar soni haqida ma’lumot .(1.1-jadval)

N=150	Soni	Foizi
Qiz bola	75	50.0

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yilda tasdiqlangan “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da qarori. Lex.uz.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida “ PF-87-son, Farmoni. Lex.uz.

O‘g‘il bola	75	50.0

Tadqiqotimizda ishtirok etgan osmirlarning yosh ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 12yoshlilar 22nafarni, 13, 14, 15, 16 yoshlilar 25nafarni va 17 yoshlilar esa 28nafar ni tashkil etdi, ularning foiz ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda aks etadi.(1.2-jadval)

Tadqiqotda ishtirok etgan etgan o‘smirlar yoshi haqida ma’lumot (1.2-jadval)

N=150	soni	Foizi
12 yosh	22	14.7
13 yosh	25	16.7
14 yosh	25	16.7
15 yosh	25	16.7
16 yosh	25	16.7
17 yosh	28	18.7

Tadqiqotimizda ishtirok etgan sinaluvchilarning oilada nechanchi farzandligiga ko‘ra tahlil qiladigan bo‘lsak, oilada 1-farzand bo‘lgan sinaluvchilar 29nafarni, 2-farzand bo‘lganlar 39nafarni 3-farzand bo‘lganlar 47 nafarni, 4-farzand bo‘lganlar 31nafarni va 5-farzand bo‘lganlar 4nafarni tashkil qildi, ularning foiz ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda ifodalanadi. (1.3-jadval)

Tadqiqotda ishtirok etgan etgan o‘smirlarning oilada nechanchi farzand ekanliklari haqida ma’lumot .(1.3-jadval)

N=150	soni	Foizi
1-farzand	29	19.3
2-farzand	39	26.0
3-farzand	47	31.3

4-farzand	31	20.7
5-farzand	4	2.7

Kim bilan yashashiga ko‘ra tadqiqotimizda ishtirok etgan o‘smirlar ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning teng yarmi ya’ni 75 nafari ota onasi bilan yashaydi boshqacha aytganda nuklear oilada yashaydi. Qolgan 75 nafari esa Kengaytirilgan (an’anaviy) oilada bobo buvisi qarindoshlari bilan birgalikda yashaydi. Ularning foiz ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda aks etgan.(3.1.4-jadval)

Tadqiqotda ishtirok etgan etgan o‘smirlarning kim bilan yashashi haqidagi ma’lumot.(1.4-jadval)

	Frequency	Percent
Ota-ona bilan	75	50.0
Bobo-buvi bilan (o‘zgalar)	75	50.0

Tadqiqotning dastlabki bosqichida Oilaviy muhit shkalasi (OMSH) metodikasi o‘tkazildi. Oilaviy muhit shkalasi barcha turdagi oilalardagi ijtimoiy iqlimni baholash uchun mo‘ljallangan. OMSH uslubiyati 1985-yilda S.Yu. Kupriyanov tomonidan moslashtirilgan. Oilaning ijtimoiy iqlimi - bu oilada shakllangan va undagi o‘zaro munosabatlarga ta’sir etuvchi xulq-atvor qoidalaridir. Ba’zi oilaviy qoidalar ochiq o‘rnatilsa, boshqalari yashirin bo‘lib, ular odatda oilada takrorlanib turadigan vaziyatlardan kelib chiqadi. Yashirin

qoidalar juda kuchli, chunki ular norasmiy tarzda o‘rnatiladi. Qoidalar oilada nimani qilish mumkinligini va nimani qilish mumkin emasligini, nima yaxshi va nima yomonligini ko‘rsatadi. Ya’ni, ular oila mafkurasining bir qismi bo‘lib, oilaning ijtimoiy iqlimini shakllantiradi.

Bu yerda asosiy e’tibor quyidagilarni o‘lchash va tavsiflashga qaratilgan:

1) oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar (munosabat ko‘rsatkichlari),

2) oilada alohida ahamiyat beriladigan shaxsiy rivojlanish yo‘nalishlari (shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlari),

3) oilaning asosiy tashkiliy tuzilmasi (oila tizimini boshqaradigan ko‘rsatkichlar).

4) oila a’zolari o‘rtasidagi oilaviy rollarning buzilishi.

OMSH 10 ta shkaladan iborat bo‘lib, ularning har biri oilaviy muhitni tavsiflovchi to‘qqizta bandni o‘z ichiga oladi va ular quyidagilar: uyushqoqlik, ekspressivlik, konflikt, mustaqillik, yutuqlarga yo‘nalganlik, intellektual madaniy yo‘nalganlik, faol dam olishga yo‘nalganlik, ma’naviy axloqiy jihatlar, tashkilot va nazorat.

Kolmogorov-Smirnov mezoni asosida Oilaviy muhit shkalasi (OMSH) metodikasi shkalalarini tahlil qilganimizda, ekspressivlik shkalasida ($Z=1.398$ $p<0.05$), mustaqillik shkalasida ($Z=1.419$ $p<0.05$), faol dam olishga yo‘nalganlik shkalasida ($Z=1.570$ $p<0.05$), manaviy axloqiy jihatlar shkalasida ($Z=1.418$ $p<0.05$) 95% ishonch darajasi va uyushqoqlik shkalasida ($Z=1.850$ $p<0.01$), konflikt shkalasida ($Z=1.628$ $p<0.01$), yutuqlarga yo‘nalganlik shkalasida ($Z=1.667$ $p<0.01$), intellectual madaniy yo‘nalganlik shkalasida ($Z=1.707$ $p<0.01$), tashkilot shkalasida ($Z=1.821$ $p<0.01$), nazorat shkalasida ($Z=1.850$ $p<0.01$) 99% ishonch darajasi bo‘lib, bu shkalalar normal taqsimlanish qonuniga mos kelmasligi aniqlandi.(1.5-jadval)

XULOSA O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichi bo‘lib, bu davrda intensiv biologik, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Shu bilan birga, mazkur davrda o‘smir shaxsining ijtimoiylashuvi, identifikatsiyasi va o‘z-o‘zini anglash jarayonlari kuchayadi. Bu o‘zgarishlar esa ayrim hollarda psixologik muvozanatning buzilishi, ichki ziddiyatlar va salbiy xulq-atvor shakllanishi bilan kechadi. Shunday salbiy xulq-atvor shakllaridan biri bu – agressivlikdir. Mazkur dissertatsiyada zamonaviy psixologiyada agressiv xulq-atvor muammosining nazariy, amaliy va empirik jihatlari kompleks yondashuv asosida o‘rganildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – T.: Adolat, 2023. – 65-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.:
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 457 bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
7. Baron R.A., Branscombe N.R., Byrne D. Social Psychology. – Boston: Pearson, 2009. – 720 p.
8. Bogdalova G.A. Эмоциональная устойчивость и её формирование у учащихся раннего подросткового возраста: Дис. ... канд. психол. наук. – Т.: НУУз, 2000. – 175 с.
9. Davletov S.K. Oila psixologiyasi. – T.: Ma’naviyat, 2012. – 180 b.

10. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – T.: O‘zbekiston, 2004. – 256b.
11. Bog‘danova A. O‘smirlarning tajovuzkor xulq-atvori va uni korreksiya qilish yo‘llari // Ilm-fan va taraqqiyot. – 2023. – №1. – B. 52–59.
12. Ergasheva M. Ota-ona va bola munosabatlarining o‘smirlarning xulqiga ta’siri. – Navoiy: Magistrlik dissertatsiyasi, 2020. – 90 b.
13. Qodirova G. Agressivlikning yoshga doir dinamikasi: Dissertatsiya avtoreferati. – T.: NUUz, 2018. – 36 b.
14. www.ziyonet.uz
15. http//www.psyxo.com.
16. http://www.anthropology.ru